

ISPANIYA DAVRIY MATBUOTINING JANRLARI: NAZARIY TALQIN

Maxfuza ARTIKOVA

*O'zDJTU, Madaniyatlararo kommunikatsiyaning
lingvistik ta'minoti kafedrası katta o'qituvchisi, PhD*

***Annotatsiya.** XXI asrda ispan jurnalistikasida bir qator yangi janrlar paydo bo'ldiku, endi ularni tasniflash jurnalistika sohasi oldida turgan og'ir vazifalardan biriga aylandi. Dalillar, izohlar va tahliliy matnlarga asoslangan ispan gazeta janrlari turli uslubga ega bo'lib, bu borada muallifning yondashuviga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Maqolada nafaqat gazeta matnlaridagi janriy xilma-xillik, balki soha mutaxassislari ilgari surgan ilmiy xulosa hamda takliflardagi nazariy farqlar tahlilga tortilgan.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy jurnalistika maktablarining xilma-xilligini o'rganish muhim ilmiy vazifadir. Jurnalistik ijodning yagona shakllarining tarqalishi sharoitida dunyoning turli tillari, shu jumladan keng tarqalgani bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallovchi ispan tilida yoziladigan gazeta matnlarining janri misolida o'rganish, ayniqsa, dolzarb bo'lib qolmoqda. Zero, bunday tadqiqot ispan bosma ommaviy axborot vositalarining janr xususiyatlarini tahlilini amalga oshiradi.

Bugungi kungacha mazkur masala bir qator ispan olimlari, jumladan, Grijelmo, Martin Vivaldi, Martínez Rodríguez, Bonvín Faura, Casasús, Núñez Ladevéze, García, Gutiérrez, Gomis, Mancera Rueda, Martínez Rodríguez tomonidan o'rganilgan. E'tiborli jihati shundaki, janrlarni tasniflashda olimlar turlicha yondashuvlarga ega ekani va axborotlarni janrga ajratishda aniq bir qolipga solingan tendensiyaning mavjud emasligi ko'rinadi.

Xususan, A. Grijelmo nuqtai nazariga ko'ra [3;30], Ispaniya davriy matbuotining janrlarga bo'linishi jurnalist yoki gazeta matni muallifining yozma materiallarga shaxsiy jalb etilish darajasiga bog'liq. Ya'ni, axborot janrlarining sof shaklda tabaqalanishi mavjud. Jumladan, axboriy janrlarga yangiliklar, muallifning fikri qatnashmagan qisqa, obyektiv intervyu, suhbat, turli xil axboriy hisobotlar, arxiv hujjatlari kiradi.

Ikkinchi guruh fikr va axboriy janr bo'lib, unda ma'lumot muallifning shaxsiy fikri va talqini bilan boyitiladi va bunday matnlarga xronika, jurnalistning taassurotlari hisobga olinadigan intervyular va oddiy reportajdan farqli o'laroq, ko'proq voqealarni qamrab oladigan tahliliy reportajlar kiradi.

Eng so'nggi guruh esa fikr janrlari bo'lib, unda jurnalist munosabati, muharrir minbari, sharhlar, esselar yoziladi.

Martinez Albertos esa “gazeta matnlari muallif shaxsiga minimal ta'sir ko'rsatadi va shaxsga bog'lanmaganligi bilan ajralib turadi”, deya ta'kidlaydi [5;269]. Bu xususiyat uslubiy xilma-xillikni yo'qotishdan ko'ra ko'proq vaqt va makonni tejash zarurati bilan bog'liq. Muallif matn uchun eng aniq va ifodaviy vositalarni izlashi kerak, chunki gazeta axborot manbai bo'lib, mafkuraviy va targ'ibot g'oyalarini olib boradi, shuningdek, ko'ngilochar xususiyati bilan ham jamiyatning keng auditoriyasiga qaratilgandir.

Ispan janrlarini ilk bor nazariy tadqiq etgan olimlardan Martin Vivaldi ta'sirchan matnga ega axborit janrlarni “gibrit” deb atagan edi [6;19]. Chunki aynan bunday matnli materiallar ham axborot, ham fikrni o'zida jamlaydi. Mazkur olim yangilik janrini “izohlangan matn”, reportajni “standartlashtirilgan matn”, maqolalarni esa “tahliliy matn” deb atagandi. Chuqurlashtirilgan reportajlarni “katta reportaj” yoki xronika deb nomlaydi.

Umuman olganda ispan gazeta janrlarini tasniflashda ko'proq aniqlik Martínez Albertos hamda Ulibarrining ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan. Jumladan, Martínez Albertos [5;210] ispan gazeta janrlarini quyidagicha tasniflaydi:

1-guruh. Axboriy (birinchi daraja). Maqsadi: axborot berish. O'z ichiga oladi: axborot, maqsadli reportaj. Voqeaviy reportaj, hodisaviy reportaj, intervyu reportaj, qisqa reportaj.

2-guruh. Axboriy (ikkinchi daraja). Maqsadi: tahlil qilish. O'z ichiga oladi: tahliliy reportaj, xronika.

3-guruh. Gazeta uslubi. Maqsadi: fikr bildirish. O'z ichiga oladi: maqola yoki izoh. Shaxshiy fikrga asoslangan maqolalar, biror muallif tomonidan boshqariladigan ruknlar, tanqid, erkin mikrofon.

Yuqoridagi tasnif 1992-yildayoq ispaniyalik olimlar janrlarni hajmiga, unda qo'llanadigan lisoniy vositalarga qarab emas, balki matnga muallifning aralashuviga ko'ra tasniflashgan.

O'sha davrda tadqiqot olib borgan yana bir olim Ulibarri janrlarni quyidagicha tasniflaydi [7;19]:

- 1-guruh. Axboriy: yangilik, xronika, intervyu, matbuot anjumanlari materiallari.
- 2-guruh. Tahliliy: reportaj, hujjatlarni tahlil qilish.
- 3-guruh. Baholovchi: gazetaviy materiallar, izoh va tanqid.

Ammo raqamli matbuot rivoji, gazetalarning elektron formatga o'tishi hodisasi ortidan janrlarning yangi turlari, avvaldan tasniflangan janrlar guruhi orasida qorishuvlar kelib chiqmoqda. Xususan, Bonvín Faura bugungi kunga kelib, elektron gazetalarning rivoji natijasida an'anaviy gazeta janrlari ham o'zgarishga yuz tutayotganini qayd etadi. "Masalan, an'anaviy gazetadagi yangilik bugungi kunda "izoh"ga aylanib qoldi va audiovisual jurnalistikaning kuchi bilan tenglasha olmayapti. Bu esa avvaldan mavjud bo'lgan janrlar bo'linishi, ular orasidagi farqlarni yo'qqa chiqarmoqda hamda yangidan-yangi janrlar, kiberjanrlarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda", deydi Bonvin Faura [1;46].

Xulosa o'rnida aytish kerakki, garchi ispaniyalik olim va tadqiqotchilar tomonidan ispan tilidagi davriy nashrlar janrlarining an'anaviy tasniflash bo'linmalarini takomillashtirishga urinishlar qilinsada, bu borada erishilgan natijalarni ijobiy deb bo'lmaydi. Chunki ispan jurnalistika ilmida janrlarni tasniflash uchun yagona, qat'iy ilmiy asoslar mavjud emas, shuningdek, mualliflar amaliy janrlarni qo'llash va janrlar rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalarini chuqur tahlil qilishga asoslanmagan turli xil spekulativ sxemalarni taklif qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bonvín Faura. La prensa digital: lenguaje y características. – Granada, Universidad de Granada. – 306 p.

2. García, P. V. M., Gutiérrez, C. L. M. (2012) Manual de géneros periodísticos (2a. ed.). Colombia: Ecoe Ediciones. [En línea – consultado el 29 de marzo de 2016] (<http://0-site.ebrary.com.fama.us.es/lib/unisev/reader.action?docID=10536498>)
3. Grijelmo A. El estilo del periodista. - Madrid: Taurus, 2002. – 608 p.
4. Gomis L. Teoría de los géneros periodísticos, 2008. – España: Editorial UOC (en línea – Consultado el 29 de marzo de 2016).
<http://0-site.ebrary.com.fama.us.es/lib/unisev/detail.action?docID=10646500>
5. Martínez Albertos J.L. Curso general de la redacción periodística. - Madrid: Paraninfo, 1992. – 444 p.
6. Martín Vivaldi. Géneros periodísticos: reportaje, crónica, artículo: (Análisis diferencial). – Madrid: Paraninfo, 1973. – 362 p.
7. Ulibarri, E. Idea y vida del reportaje, 1994. – Mexico. – 229 p.

DIMINUTIVES IN ENGLISH AND UZBEK LULLABIES

Faroxat KARIMOVA

Urganch davlat universiteti, PhD, katta o'qituvchi

Abstract. *This paper focuses on the description of the processes of diminutivisation in lullabies, and, in particular, analytical subtype, on the basis of the analysis of the texts taken from MrS Moon: Lullabies for bedtime, proves to be the most widely-used one in English lullabies.*

Key words: *lullabies, diminutives, analytical subtype, reduplication, paradigms of “little”.*

Lullaby is a song that you sing to children to make them sleep. They are sung from generation to generation. They are the biggest contributor in upbringing children. They have national specificity and are a mirror reflecting the mental, legal, demographic, cultural aspects of the life of modern society. They show nation's values, as well. Lullabies in particular appear to invite distinctions between authentic and imitative songs because the term is used to describe both songs sung to soothe children and lyrics that depict such songs. Sometimes lullabies can only contain humming tune. However, mostly lullabies comprise words. Most of them are pampering words. They include diminutives to strengthen the meaning.